

OLTIN FOND



2021-yil
№ 1-son



Yurtimizdan dunyo ilm-fani taraqqiyotiga beqiyos hissa qo‘shgan buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Yoshlarimizni ularga munosib ma’rifatli, ilmi qilib tarbiyalashimiz lozim.

Shavkat Mirziyoyev

OLTIN FOND

2021, 1-son

OLTIN FOND

ADABIY-MA'RIFIY, METODIK JURNALI

I SON

QARSHI – 2021



OLTIN FOND

2021/1

ADABIY-MA'RIFIY, METODIK JURNALI

BOSH MUHARRIR:**Sodiqov Sardor Sodiqovich***Qarshi shahridagi Prezident maktabi ijrochi
direktori***TAHRIR HAY'ATI:****Xujamov Inam Hikmatovich***Prezident ta'lim muassasalari agentligi Darsliklarni
ishlab chiqishni muvofiqlashtirish bo'limi bosh
mutaxassisi***Amir Xudoyberdiyev***O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi
a'zosi, Turon Fanlar akademiyasi vitse prezidenti***Nafisa Davron***O'zbekiston Respublikasi Yozuvchilar uyushmasi
Qashqadaryo viloyati kengashi a'zosi***Mamatqulov Bekzod Sherzodovich***Qarshi shahridagi Prezident maktabi ma'naviy-
ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari***Muhammadiyev Ruslan Jo'raqulovich***Qarshi shahridagi Prezident maktabi oliy toifali ona
tili va adabiyoti fani o'qituvchisi***Nurmatova Xusnora Sheraliyevna***Qarshi shahridagi Prezident maktabi amaliyotchi
psixologi***Allayorov Ruslan Xaykal o'g'li***Qarshi shahridagi Prezident maktabi oliy toifali
geografiya fani o'qituvchisi, Nizomiy nomidagi
Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil
izlanuvchisi***Muassis – Qarshi shahridagi
Prezident maktabi**

Jurnalda Qarshi shahridagi Prezident maktabi hayoti, ma'naviy-
ma'rifiy tadbirlar, o'qitishning
metod va texnologiyalariga oid
badiiy-ma'rifiy, ilmiy-metodik
maqolalar o'zbek va ingliz tillarida
chop etiladi.

Jurnal Prezident ta'lim
muassasalari agentligi tasarrufidagi
Prezident, ijod va ixtisoslashtirilgan
maktablarning pedagog xodimlari va
o'quvchilari uchun mo'ljallangan.

“OLTIN FOND” adabiy-ma'rifiy, uslubiy jurnali tahririyatining manzili:

Qarshi shahar, Mustaqillik shoh ko'chasi 1-uy.

<https://t.me/pm qarshi>

MUNDARIJA

SO‘ZBOSHI
MAKTAB HAYOTI

- | | | |
|----|--|----|
| 1. | Sardor Sodiqov <i>Qarshi shahridagi Prezident maktabida o‘tkazilgan ochiq eshiklar kuni</i> | 7 |
| 2. | Jahongir Aliqulov <i>Qarshi shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchilari uchun maxsus trening</i> | 9 |
| 3. | Bekzod Mamatqulov <i>Hamkorlik memorandumi</i> | 11 |
| 4. | O‘ktam Shodmonov <i>Maktab Prezidentligi saylovi</i> | 12 |

NAZM VA NASR GULSHANI

- | | | |
|-----|--|----|
| 5. | Nafisa Davron <i>Kitob</i> | 15 |
| | <i>Buyuklik</i> | 16 |
| 6. | Ulug‘bek Turdiyev <i>Prezidentimizga tilagimiz (o‘quvchilarim tilidan)</i> | 17 |
| 7. | Xusnora Nurmatova <i>Men va quyosh</i> | 18 |
| 8. | Zahro Halilova <i>Shukrona</i> | 23 |
| 9. | Shabnam Mamatqulova <i>Do‘st</i> | 25 |
| 10. | Farangis Aliqulova <i>Onam allasi</i> | 26 |

MA‘NAVIY-MA‘RIFIY TADBIRLAR

- | | | |
|-----|---|----|
| 11. | Ruslan Muhammadiyev <i>Qadring baland bo‘lsin – ona tilim</i> | 27 |
| 12. | To‘lqin Raximov <i>Bayrog‘im – iftixorim</i> | 28 |

ILM SARCHASHMALARI

- | | | |
|-----|---|----|
| 13. | Gaddy, Michele D <i>Reservoir stencil with relief areas and method of using</i> | 30 |
| 14. | Baxtiyor Raximov <i>Prezident maktablarida tarix darslarini “loyihalash” metodi asosida tashkil etish</i> | 33 |
| 15. | Xurshida Xaydarova <i>Yoshlar slengi lingvistik tadqiqot obyekti sifatida</i> | 36 |

O‘QITUVCHILAR FAOLIYATIDAN...

- | | | |
|-----|--|----|
| 16. | <i>O‘quvchilar mehrini qozongan science fani ustozlari</i> | 40 |
| 17. | <i>Tadqiqotchi pedagog</i> | 42 |

VIKTORINALAR

44

SO‘ZBOSHI

MAKTAB HAYOTI**QARSHI SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABIDA O‘TKAZILGAN
OCHIQ ESHIKLAR KUNI****Sardor Sodiqov***Qarshi shahridagi**Prezident maktabi ijrochi direktori*

Qarshi shahridagi Prezident maktabida 2021-yilning 30-oktabr kuni “Ochiq eshiklar kuni” tadbiri o‘tkazildi. Bu tadbirdan ko‘zlangan maqsad, barcha o‘quvchilarning orzusi bo‘lgan Prezident maktabi faoliyati haqida to‘liq ma’lumot berish, maktabimiz va unda yaratilgan shart-sharoit va qulayliklar bilan tanishtirishdan iborat edi.

Maktabimizga, nafaqat, Qarshi shahridan, balki barcha tumanlardan mehmonlar, ota-onalar farzandlari va nabiralari, shuningdek “Ochiq eshiklar kuni” tadbirini yoritish maqsadida viloyatning ko‘plab OAV xodimlari, blogerlar, mustaqil jurnalistlar ham tashrif buyurdilar. Ularni maktabimiz o‘qituvchilari, o‘quvchilari va xodimlari xushmuomalalik va ochiq chehra bilan kutib oldilar. Dastlab, mehmonlarga maktabimiz haqidagi ma’lumotlar to‘liq yozilgan broshyuralar taqdim etildi.



Ularga maktabimizning sinfxonalari, komputer xonalari, yozgi va qishki sport zallari, kutubxonasi, oshxonasi va o‘quvchilar yotoqxonasi ko‘rsatildi va yo‘l-yo‘lakay zamonaviy ta’lim texnologiyalari, darsliklari haqida ma’lumot berib o‘tildi.



Ijrochi direktorimiz S.Sodiqov va akademik direktorimiz Michele Gaddylar mehmonlarni qiziqtirgan savollarga javob berdilar. Bu barcha mehmonlarni xursand qildi va zamon talablariga mos keladigan maktab barchaning hayratiga sabab bo‘ldi. Mehmonlar chet ellik o‘qituvchilarimiz bilan suratga tushishdi. Xorijlik o‘qituvchilar bilan suhbatlashdilar.

Maktab rahbariyati va xodimlar bunday tadbirlarni yana tashkillashtirishga va’da berdilar va albatta bizning maktabimiz “to‘siqlar ortida”gi bilim dargohi bo‘lib qolmasligini ta’minlaydi.

QARSHI SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABI O‘QITUVCHILARI UCHUN MAXSUS TRENING

Jahongir Aliqulov

*Qarshi shahridagi Prezident maktabi
maxsus fanlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari*

Rivojlangan texnologiyalar asrida yashayotgan inson komputerni, internetni tushunmasligi zamon talabiga to‘g‘ri kelmaydi, albatta.

Qarshi shahridagi Prezident maktabining mahalliy va xorijiy o‘qituvchilari I chorak ta‘tilidan unumli foydalangan holda internet savodxonligi va internetdan samarali foydalanish bo‘yicha treningda qatnashdilar. Bu treningga maktabimiz akademik direktori Ms. Michele Gaddy boshchilik qildilar. Unda o‘qituvchilar Google platformasida ishlash, o‘quvchilarni baholash va internetda ish yuritish haqida bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘ldilar.

Uch kunlik “Google Classroom”dan foydalanish bo‘yicha trening o‘tilgandan so‘ng, barcha o‘qituvchilarimiz 4 ta sinfxonada guruhlariga bo‘linib, sertifikat olish uchun tayyorlandilar. Chet ellik o‘qituvchilar Mr. Frank, Mr. F.Caguiat, Mr. Edwin va maxsus fanlar bo‘yicha direktor o‘rinbosari imtihonoldi tayyorgarliklarni o‘tkazishdi.



Barcha o'qituvchilarimiz imtihonlardan muvaffaqiyatli o'tib, Google Certified Educators ya'ni Googlening google docs\sheets\slides\forms va google classroom platformalarini ishlata oladigan o'qituvchilarga aylandilar va sertifikatlarni qo'lga kiritdilar. O'qituvchilarga ijrochi direktorimiz S.Sodiqov tomonidan sertifikatlar topshirildi.



Hozirda o'qituvchilar va boshqaruv xodimlarimiz ikkinchi va uchinchi darajali sertifikatni qo'lga kiritish uchun tayyorlanmoqdalar. Yaqin kelajakda ular vohamizning mahalliy maktablarida o'qituvchilarni internetda ish yuritish bo'yicha bemalol tayyorlay oladilar.

HAMKORLIK MEMORANDUMI

Bekzod Mamatqulov*Qarshi shahridagi Prezident maktabi**ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari*

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev rahbarligida 2021-yil 10-sentabr kuni kengaytirilgan tarzda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishi 44-sonli bayonining 24-bandida belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan, shuningdek, 2021-yil 15-oktabrdagi Prezident ta'lim muassasalari agentligi va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligining "Prezident ta'lim muassasalari agentligi tizimidagi maktablarda milliy raqs va drama to'garagini, "bir o'quvchiga bir cholg'u asbobi" shiori ostida milliy cholg'u asboblari (dutor, rubob, doira, do'mbira, g'ijjak, nay)ni o'rgatuvchi to'garaklar faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qo'shma qarori yuzasidan 2021-yil 23-noyabr kuni Qarshi shahridagi Prezident maktabida Qarshi shahridagi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi bilan hamkorlik memorandumi imzolandi.



Bu memorandumdan ko'zlangan asosiy maqsad, ikki maktab o'rtasida do'stlik va hamkorlikni yo'lga qo'yib, iqtidorli o'quvchilarni kashf qilish va o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazishdir.



Memorandum imzolanishi Qarshi shahridagi Prezident maktabida Qarshi shahridagi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi jamoasining o'z chiqishlari bilan tayyorlagan "Ijod zavqi" konsertiga ulanib ketdi. Bu esa albatta, barchaga birdek a'lo kayfiyat baxsh etdi.

MAKTAB PREZIDENTLIGI SAYLOVI*O'ktam Shodmonov**Qarshi shahridagi Prezident maktabi yoshlar yetakchisi*

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida" 2017-yil 5-iyuldagi PF-5106-son Farmoni, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 29-may kuni Zangiota va Sergeli tumanlariga tashrifi davomida berilgan topshiriqlar hamda Sergeli tumanida jamoatchilik vakillari bilan o'tkazilgan uchrashuvining 40-sonli bayoniga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Prezident ta'lim muassasalari agentliging 2021-yil 8-fevraldagi qarorini ijrosini ta'minlash maqsadida Qashqadaryo viloyati Qarshi shahridagi Prezident maktabida Maktab Prezidenti saylovini ochiq va oshkoralik tarzida tashkil etildi. Saylov uchun maktab ma'muriyati, o'qituvchi va xodimlar jalb etildi. Maktabimizda saylov muhiti va sharoiti yaratilib, o'quvchilar maktabimizning 10-sinflaridan o'z nomzodlarini qo'ygan 6 ta o'quvchidan o'zlari istagan bittasiga ovoz berdilar.




Quvonarlisi, Prezident ta'lim muassasalari agentligi direktori Hilola O'ktamovna Umarova tomonidan maktab Prezidenti saylov natijalari e'lon qilindi. Maktab

Prezidenti sifatida eng ko‘p ovoz olgan 10 “green” sinf o‘quvchisi Yo‘ldoshev Jahongir Rustam o‘g‘liga ishonch yorlig‘i topshirildi.



Prezident ta‘lim muassasalari agentligi direktori Hilola Umarova g‘olibni tabrikladi, unga muvaffaqiyat tiladi. Shundan so‘ng agentlik direktori o‘quvchilarga yuzlandi va ularni suhbatga chorladi. O‘quvchilar esa o‘zlari yod olgan “O‘zbekiston yoshlari” qo‘shig‘ini jo‘rlikda kuylashdi.



Prezident ta‘lim muassasalari agentligi direktori Hilola Umarova, qolaversa, maktab o‘quvchilariga samimiy tilaklarini bildirib o‘qishlariga omad tiladi. Ulardan ulkan zafarlar kutishini ta‘kidladi.

NAZM VA NASR GULSHANI



Nafisa Davron

O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi
Qashqadaryo viloyati bo‘limi yetakchi mutaxassisi

KITOB

Kitob bo‘lmaganda men bu dunyodan
allaqachon ketgan bo‘lardim.

Artur Shopengauer

Insonning eng ulug‘ obidasidan,
Tafakkur, taraqqiy sendan boshlanar.
Orzuli ko‘zlarga saboqxonasan,
Jo‘n qalblar buyuklik sari yuksalar.

Chorlaysan insonni pok manzilingga,
Jaholat o‘ladi poyingda xasta.
Koinot sochilib yotar tegrangda,
Qudratli tiriklik tiz cho‘kar asta.

Sen bilan ko‘zlagum eng ezgu maqsad,
Ertamni ko‘raman faqat o‘zingda.
Mukammal yo‘llarga eltgaysan albat,
So‘ngsam ham qolsaydim sening so‘zingda.

BUYUKLIK

Nish urar daholik qulfiga,
Men, deydi tengi yo‘q musavvir.
Komillik cho‘qqisin so‘rasang,
Ruhimning suratin chizib ber.

Lol qoldirib loykash ey kulol,
Sur loyingdan yasab ber vijdon.
Shunda yegan oshing pok halol,
Umr berib ketganing rostdir.

Tabib, buyuklikning bobida,
Manman degan Luqmon Hakimmi.
Va daholik da‘vo qilganlar,
Qaytaringiz kelgan o‘limni.

Izlab, imkon tupgusi yurak,
Bunga chora bordir ehtimol.
To‘ldirib ma’noga tengsiz hayotni,
Mo‘jizadan hayrat bo‘lsin lol.



Ulug'bek Turdiyev

Qarshi shahridagi Prezident maktabi

“Yosh notiqalar” to'garagi rahbari

PREZIDENTIMIZGA TILAGIMIZ

(o'quvchilarim tilidan)

Asl zargar o'zingizsiz, bobojon,
“Oltin fond”, – deb atadingiz bizlarni.
Baxtimizga omon bo'ling har qachon,
Jilo berib porlatdingiz ko'zlarni.

Siz bizlarning jajji yuragimizga,
Mehringizni joyladingiz, bobojon!
Siz bizlarning porloq ko'zlarimizga,
Sehringizni joyladingiz, bobojon!

Farzandizman, baxtim bugun barkamol,
O'sayapman Yangi O'zbekistonda.
Dilbandizman orzular qanotida,
Uchayapman Yangi O'zbekistonda.

Bizlar uchun tinim bilmay ishlaysiz,
Baxtimizning qo'rg'onisiz, bobojon!
Kelajakning poydevorin o'ylaysiz,
Hayotimiz tug'yonisiz, bobojon!

**Xusnora Nurmatova**

*Qarshi shahridagi Prezident maktabi
amaliyotchi psixologi*

MEN VA QUYOSH

Bilasizlarmi, 95 yoshga kirgan bobom kecha jurnalistlarga bergan intervyusida uzoq umr ko‘rish va baxtli hayot siri haqida ajoyib fikrlarni aytgan edi, erinmay yon daftaringa yozib oldim. Axir, Shokir, og‘ayni o‘tgan yili ammamlarning to‘yida, bobongga havasim keladi, yuz yoshga yaqinlashib qolgan bo‘lsada, hanuz tetik va bardam, buning siri nimada, so‘rab bilib ber-chi degan eding, o‘sha gaping yodimga tushib ketdi, apil-tapil yozishga kirishdim. Bundan tashqari bobomning ibratli umr yo‘li haqida maktabimizning psixologi Nazira Alimardonova kitob yozishim mumkinligi haqida ta’kidlagan edilar. Xullas, bobom jurnalistlarga “agar inson har tong quyoshdan avval uyg‘onib yangi kunni qarshilasa, imkon darajada jismoniy mashqlar bajarsa, dasturxon atrofida yaxshi niyatlar qilsa, salomatlikka, katta boylikka erishadi, dedilar. Bobomning aytishicha, erta turishning foydalari bisyor ekan, birinchidan miya faoliyatining ishlashi yaxshilanib, qon aylanishi, moddalar almashishi yaxshi tomonga o‘zgarib, insonda harakatchanlik, mehnatsevarlik, yashovchanlik qobiliyatlari yanada rivojlanib, qarish jarayoni sekinlasharkan. Keyin esa bu jarayon doimiy odatga aylanib, ruhan tetiklashib yangi kunga peshvoz chiqarkansiz. Shuning uchun men ham quyoshni kutib olishni bugundan boshladim va bobomga hamroh bo‘lib, jismoniy mashqlar bajardim. Qaranglar, bugun ancha tetikman...

Sodiqjon azonlab uyqudan turishning foydalari haqida o‘rtoqlariga berilib gapirayotganda oxirgi partada o‘tiradigan sinfdoshi Zafar uning so‘zini bo‘lib, kalaka qila boshladi.

- Chol bola bo‘ldim, degin. Balki bobong bilan birgalikda samovarga ham chiqarsan, boboylar bilan chaq-chaqlashgani? Chol bola! Sinfda gurr etib kulgu ko‘tarildi. Avval o‘g‘il bolalar, keyin qizlar kulgu simfoniyasiga jo‘r bo‘lishdi. Sinf sardori Baxtiniso bolalarni tinchitish o‘rniga labini dastro‘molcha bilan yopib ichida kulab o‘tirdi. Ayniqsa, sinf tozalik raisi Sabina ichagi uzilib kular, yuzlari bobosining anoriday qizarib, ko‘zlaridan tomchi-tomchi yosh yugurardi. Har kuni undan uy vazifasini ko‘chirtirib oladigan Axror shumshuk ham ozg‘in yelkalarini uchirib, qornini ushlagancha kulishdan o‘zini tiyolmadi. Hozirgina uning so‘zlarini jon qulog‘i bilan eshitib turgan Orif ham tushib qolgan tishlarini Sodiqjonga ko‘rsatib mazax qilganday irshayib turar edi.

“Chol bola” emish. U uyga qaytarkan, o‘ziga o‘zi bu so‘zni takrorlardi. Qarab turinglar, sizlarga birovning ustidan kulishning oqibati nimalarga olib kelishini ko‘rsatib qo‘yaman. Darsdan kelib choyini ichib, dadasiga tomorqada yordamlashayotganda ham, nonushta mahalida ham, ayniqsa kechki ovqatda oila davrasida bobosining nasihatlari ham qulog‘iga kirmas, uy vazifasini tayyorlash paytida ham faqat sinfdoshlarining kulgu, mazaxlari tinchlik bermasdi. Birdan qo‘liga daftar va qalam olib, ko‘pdan beri o‘ylab yurgan bir rejasini qog‘ozga tushira boshladi.

Ertasi kuni u darsga ho‘mrayib kirib keldi, deb o‘ylayapsizmi, yo‘q adashdingiz. Aksincha, har kungidan ham quvnoq va dadil edi u. Sinfdoshlaridan kimdir ana “chol bola” keldi, deganiga ham parvo qilmadi. Sekin joyiga o‘tirib, kecha yod olgan she‘rini ko‘zini qisman yumgancha takrorlab, xayolidan o‘tkazib oldi. Sinf sardori Baxtiniso hammaga bir-bir ma‘noli qarab chiqqach, Sodiqjondan so‘radi:

— Bugun kechagidan ham shodon ko‘rinasan, bugun qanday yangiliklar bilan kelding?

— Eshitasizlarmi? Kecha bobomning kitoblaridan birida o‘qidim. Inson kelgusida qanday inson bo‘lib voyaga yetishida uning tarbiya olayotgan muhiti, yon-atrofidagi kishilarning, tengdoshlarining ta’siri muhim ahamiyatga ega ekan...

— Yana bobong, yana senmi? Boshqa gap qolmaganmi olamda? Uning so‘zini odatiy holda bo‘ldi Zafar. — 5-“A”sinfnig allomasi bo‘lib qoldim, de.

— E-e-e... “Quyosh va men”... Yo‘q, shoshma, oldin mening so‘zlarimni eshitinglar... bugun azonda...

— E, bo‘ldi qil-ay. Maza qilib uxlab yotganda odamning ustidan kimdir issiq ko‘rpani olib tashlaganday qilmagin. Kim qancha uxlasa o‘zi biladi. Senga qolibdimi o‘qituvchilik qilish, boshqalarga motivatsiya berish. Undan ko‘ra yoqangni to‘g‘rilib ol, “Chol bola”.

Yana hamma gurillab kulib yubordi. O‘qituvchi sinfxonaga kirib kelganda ham kimdir piq-piq kulib o‘tirardi. Shunda ham Sobitjonning qovog‘i osilmadi. O‘zini erkin tutib, o‘qituvchining “kim uyga vazifani bajarib keldi?” degan savoliga birinchilardan bo‘lib, “men”, deb o‘rnidan turdi. O‘tgan va yangi mavzudan ham ozgina gapirib bergan edi Muxlisa Botirova unga ikkita “5” baho qo‘ydi. Zafarga qarab, xuddiki, darsdan oldin bo‘lib o‘tgan voqeani eshitib turganday, “dangasalikni yig‘ishtirib, sen ham undan o‘rnak ol”, deganda negadir sinfxonada g‘ala-g‘ovur boshlandi. Muallimning qat’iy ohangdagi ovozi o‘quvchilarni sergaklantirdi:

— Bolalar, jiminglar, yangi mavzuni tanishtiraman...

Zafar to‘rt yilni tengdoshlaridan orqada qolib, muallimlarining dakkisini eshitish bilan o‘tkazgan ulgurmovchi bolalardan biri edi. Uning Sobitjonda alami bor. Har darsda u a‘lo baho va maqtov eshitadi. Zafar esa... Ha, shovvoz, ana, u darsdan so‘ng maktabdan chiqib, muyulishdagi yo‘lda Sobitjonni kutib o‘tiribdi. Unda nima gapi bor ekan, balki tongda uyg‘onish sirlarini va yoki bilimdonlik sirlarini o‘rganib olmoqchidir, har holda hechdan ko‘ra kech yaxshi. Yaxshi tomonga o‘zgargandir muallimning bugungi dashnomlaridan keyin. Yo‘q, uning avzoyi buzuq; boyadan beri asabiy yo‘lning u yog‘idan bu yog‘iga borib keladi. Kurtkasining yengini asabiy tishlab, tishlab qo‘yganiga qaraganda vaziyat og‘ir tus oladiganday. Shovvoz, senga

nima bo‘ldi? Ha, seni ham tushunsa bo‘ladi. O‘zi oxirgi paytlarda anavi mishiqi Sobitjon rosa taltayib ketdi. Tunov kuni adabiyot darsida she‘r yozdim deb, ustozidan ikkita “5” baho olgan edi. “Mehrjon” bayramida mevalarning shifobaxsh xususiyati haqida gapirib, turli xil shirinliklar o‘rniga o‘zimizning bog‘imizda yetishtirilgan shifobaxsh mevalarimizni tanovul qilaylik, aziz ne‘matlarning qadriga yetaylik, deb direktordan maqto‘v eshitdi. Endi ikki kundan buyon ertalab hammadan oldin uyqudan turishini aytib, g‘azabini qo‘zg‘aydi. Uning bir ta‘zirini berib qo‘yish kerak. Ana, olifta, maktab darvozasidan chiqib kelyapti. Hozir boplab jag‘iga bir musht tushirishning ayni payti.

Qo‘lini musht qilib, oldinga shaxdam odimlaganda Zafar joyida toshday qotdi. Yomonlik hech qachon murodiga yetmagan! Uning qo‘llari tugilganicha qolaverdi. Eh, Zafar, undan ko‘ra Sobitjonga havas qilsang bo‘lardi.

“Yo‘q, unga baribir havas qilmayman!” Zafar direktorning mashinasining changida qo‘llarini musht qilganicha qolaverdi. Mashina ichida ketayotgan Sobitjonni o‘ylarkan, ichini nimadir ayovsiz timdalardi. “Nega, uni direktor mashinasiga mindirib ketdi?”

Uyiga chigal o‘ylar qurshovida qanday yetib kelganini bilmay qolgan Zafarni darvoza oldida turgan ayolning shang‘illagan ovozi o‘ziga keltirdi:

— Keldingmi, yaramas, nega, ko‘chada itimga, dalada molimga, bog‘da bolimga, maktabda o‘g‘limga, xullas o‘z holimga qo‘ymaysan, maqsading nima? Ayolning quruq cho‘pdek qo‘llari yuziga kelib tushganda onasiga ko‘zi tushdi-yu, aftidagi emas, ichki og‘riqdan ingrab yubordi.

“Bechora onam, yelkalari tushib, mening dastimdan yuzi yerga qaradi, menga tanbeh bergani so‘zlari ham tugagan: tili lol. Onaizoriga rahmat emas, la‘nat olib kelgan bolani nima deb atash mumkin? Oyijon, meni kechiring...”

Oradan uch oy o‘tdi. Yerga oppoq qor tushdi. Oppoq palto kiygan daraxtlar shamollab qolishdan qo‘rqqanday hurpayib ko‘rinadi. Hademay maktabda yangi yilni kutib olish tadbiri bo‘lib o‘tadi. Zafarlarning sinf rahbarining aytishicha tadbirda 5-“A” sinf ajoyib “syurpriz” tayyorlaganmish. Qiziq, nima ekan u?

Uzoq kutilgan tadbir boshlandi. Direktor soʻzga chiqdi. Bugun mamlakatimizda oʻquvchilarning bilim olishlari, iqtidorini har tomonlama namoyish etishlari uchun barcha eshiklar ochiqligini qayta-qayta takrorladi. Maktabning ana shunday oʻquvchilar orasida... “Zafar ham bor...” boʻlsa edi, qaniydi. Bechoraning peshonasidan sovuq ter chiqib ketdi. Axir roʻyxatda Sobitjonning ismi-sharifi birinchi oʻqildi. Shundan soʻng maktab sahnasida bir-biridan qiziqarli ertak tomoshalari boshlandi. Jajji qizaloqlar shoʻx raqslarga tushishdi. Qorbobo-Qorqiz sheʼr aytgan bolalarga sovgʻalar ulashdi.

Nihoyat, “ajoyib “syurpriz” eʼlon qilinadigan vaqt yetib keldi. Zalda jimjitlik. Direktor sahnaga salmoqlab chiqib keldida, tomogʻini qirib, 5-“A”sinflar rahbarini davraga taklif etdi. Unga shahar xalq taʼlimi boʻlimining faxriy yorligʻini topshirdi. Mammuniyat bilan maktab jamoasini qutladi. Soʻng birdan jimib qoldida, armon bilan soʻzboshladi:

— Mening bolaligimdagi armonim hanuz koʻksimni gʻijimlaydi. Bolaligimda ona tabiatni boshqacha sevardim xuddi tengdoshingiz Sobitjonday. Sheʼrlar yozardim. Kitob qilish qayoqda edi oʻshanda oʻquvchining ijodini. Bir kuni maktabimizga tekshirish kelib, sumkamdagi sheʼrlarni koʻrib, muallimimizni ishdan olgan edi... Va meni ham maktab haydab yuborishdi. Bu nomusga chidolmagan dadam shahardan qishloqqa koʻchib ketgan edi. Oʻshanda mening iqtidorim quvilgan edi... Direktor chuqur nafas olib soʻzini davom ettirdi:

— Shukrki, sizlar bizlar koʻrmagan imkoniyatlarni, qoʻllab-quvvatlashlarni koʻrdingiz, baxtingizga ilohim koʻz tegmasin! Bugun men baxtliman! Mana, tengdoshingiz Sobitjon mening armonimni yuzaga chiqardi. “Quyosh va men” nomli ilk kitobi nashrdan chiqdi. Uni barchamiz tabriklaymiz!

Davrada gulduros qarsaklar chalindi. Zafar yugurib borib, Sobitjonni mahkam bagʻriga bosib:

— Oshnajon, menga ham quyosh bilan sirlashishni oʻrgat, men ham senday buyuk ishlar sari qadam tashlayin! — dedi. Sobitjon, “albatta, doʻstim, bu — boshlanishi, bizlarni oldinda bundan ulugʻvor ishlar kutmoqda” deya oldi hayajon ichida.



Zahro Xalilova

Qarshi shahridagi Prezident maktabi

10 "blue" sinf o'quvchisi

SHUKRONA

Oppoq beg'ubor tong otar ohista,
Qishlog'im ko'rkiga zeb berar quyosh
Bulbullar xonishi boshlanar asta
Sirlashar tabiat men bilan sirdosh

Tong. Mening tongim qanchalar go'zal
Yonog'in taftini sezar yuragim
Qalbim sog'inchingdan hapqirgan mahal
Shukur-la boshlayman har bir tilagim

Tongni qarshilamoq baxtin muyassar,
Etgan Parvardigor, Robbimga shukur
Bitta mayizini qirqqa teng bo'lgan
Bir mushtga birlashgan xalqimga shukur

Xalqni sevgan, siylagan Prezidentim
Sinovlar egmagan qaddin, bardoshin
Sizni bosh aylagan Allohga shukur
Asragan shu yurtning ulug'in, yoshin

Borliq qo‘shig‘iga bo‘lib hamohang,
Chalinar quloqqa azonning sasi
Ilk quyosh nuri-la ko‘kka intilgan
Atirgul shabnami ko‘nglim oynasi.

Samoni qoplaydi qushlar chug‘uri
Bahor gullarida kapalak g‘ujg‘on
Ayvonimda qaldirg‘och vijir-vijiri
Shukrkim, osuda, tinch, moviy osmon.

Ariqdan suv olib sepa boshlayman.
Oh, bunchalar totli hiding, Ona Yer,
Ta‘rifingga so‘z yo‘q bayon aylasam
Ojizdir qalamim ham nazm, nasr

Ko‘rpadek yastangan kiyik o‘t, rayhon
Isidan mast bo‘lib, aylanar boshim
Bunday yurt tuprog‘in, giyohin o‘pmay
Bo‘larmikin? Ayt-chi ey, vatandoshim...

Men bugun o‘quvchi, erta talaba
Omad, baxtga to‘la tonglar kutaman.
Sinovlar uchraydi ko‘p yo‘limizda
Boshim mag‘rur, qaddim bukmay o‘taman.



Shabnam Mamatqulova

Qarshi shahridagi Prezident maktabi

9 "blue" sinf o'quvchisi

DO'ST

O'tib ketdi o'tgan kunlarim,
Daryo bo'ldi achchiq yoshlarim,
Dam qiynalib, dam kuygan paytim,
Hamdard bo'lding dardkashim, do'stim.

Baxtli kunlarimda sensan safdoshim,
Bosolmagay o'rning hatto qondoshim,
Osmonimda go'yo nurli quyoshim,
Baxtinga sog' bo'lg'in, eng yaqin do'stim.



Farangis Aliqulova
Qarshi shahridagi Prezident maktabi
5 “blue” sinf o‘quvchisi

ONAM ALLASI

Uxlamasam tunlari
Onam alla aytardi.
Yoqimli ovozlari
Qalbinga xush yoqardi.

Uxlamasdim ataylab
Yana tinglay deb uni
Onamning ovozlari
Ko‘nglimga xush yoqardi.

MA'NAViy-MA'RIFIY TADBIRLAR

QADRING BALAND BO'LSIN – ONA TILIM

Ruslan Muhammadiyev

Qarshi shahridagi Prezident maktabi

oliy toifali ona tili va adabiyoti fani o'qituvchisi

Shu yilning 21-Oktabr sanasida Qarshi shahridagi Prezident maktabida pedagog-xodimlar va o'quvchilar bilan birgalikda “Qadring baland bo'lsin – ona tilim” deb nomlangan ma'naviy-ma'rifiy, adabiy kecha o'tkazildi. Unda ona tili va adabiyot fani ustozlari Ruslan Muhammadiyev va Xurshida Xaydarovalar, shuningdek, rejissor Xayrullo Xaqberdiyev tomonidan tayyorlangan sahna asarlari va she'riy mushoiraxonlik o'quvchilar tomonidan yuqori kayfiyatda va a'lo darajada ijro etildi.



Tadbir boshida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi viloyat bo'limi rahbari Lola Saodatova so'zga chiqdi va tadbirda faolliklari bilan alohida ajralib turgan, bilimdon o'quvchilarga kitoblar sovg'a qilgan holda tadbirini ochib berdi. Tadbir nihoyasida esa, maktab direktori Sardor Sodiqovich Sodikov so'zga chiqdilar va o'z his-tuyg'ularini yashirmagan holda, tadbirni boshidan oxirigacha qalblari zavq-u shavq, faxr-iftixorga to'lib tomosha qilganliklarini alohida ta'kidlab o'tdilar.

Shuningdek, tadbirni tashkillashtirishda jonbozlik ko'rsatgan ona tili va adabiyot fani ustozlari, rejissor, ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha direktor

o‘rinbosari, psixolog va barcha faol ishtirokchilarga maktab direktori alohida minnatdorchilik bildirib, “Tashakkurnoma”lar taqdim etdi.



BAYROG‘IM – IFTIXORIM

To‘lqin Raximov

Qarshi shahridagi Prezident maktabi

oliy toifali tarix fani o‘qituvchisi

2021-yil 18-noyabrda Qarshi shahridagi Prezident maktabida davlatimiz bayrog‘i qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan ma’naviy-ma’rifiy tadbir tashkil etildi.

Tadbir davomida vatanimizning shonli tarixini o‘zida aks ettirgan bayrog‘imiz haqida Prezident maktabi o‘quvchilari tomonidan she’rlar, to‘rtliklar aytili, kuy va qo‘shiqlar ijro etildi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i qabul qilinganligining 30 yilligi munosabati bilan rasmlar tanlovi o‘tkazilib, unda g‘oliblar diplom va esdalik sovg‘alar bilan taqdirlandi.

Tadbirda tashrif buyurgan Qarshi shahridagi Oliy harbiy aviatsiya bilim yurti kursantlari va harbiy orkestri ishtirokchilarga yuqori kayfiyat ulashdi. Prezident maktabi o‘quvchilari tomonidan ijro etilgan sahna ko‘rinishlari va raqslar tashrif buyurganlarga manzur bo‘ldi.



Tadbir jarayonida sportning futbol turi bo'yicha bo'lib o'tgan musobaqada g'olib bo'lgan 10 green sinf o'quvchilari hamda jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi O.Shukurovga medal, faxriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Tadbirni tashkil etgan tarix fani o'qituvchilari To'lqin Raximov, Baxtiyor Raximov, tarbiya fani o'qituvchisi Bobur Ergashovga maktabimiz direktori S.Sodiqov tomonidan tashakkurnoma topshirildi.

ILM SARCHASHMALARI**DEVELOPMENT AND METHOD FOR RESERVOIR STENCILS
WITH RELIEF AREAS****Dr. Michele Gaddy***The academic director of Karshi Presidential School*

Abstract. A stencil comprising two or more layers is described for applying surface mount materials onto printed circuit boards, flexible circuits, wafers or other substrates. The stencil can accommodate preexisting surface mount components and materials. The stencil utilizes material reservoirs, relief areas and delivery apertures and can be used for depositing surface mount materials such as adhesives, conductive glues, solder paste and solder balls.

Description. The surface mount technology (SMT) assembly industry requires the application of surface mount materials such as adhesives and solder onto printed circuit boards (PCBs), flexible circuits and wafers. Components are glued in place on the PCB before normally going through a wave solder process to solder the components to the PCB. One of the methods of depositing glue onto the PCB is with a glue dispensing machine. This is a sequential process where glue is dispensed through a fine orifice point by point under control of an X-Y positioning machine. Glue and solder printing can also be done by stencil printing, which is a parallel process. Material is applied to a stencil and then forced onto a substrate through openings in the stencil.

These current techniques generally lack the flexibility to handle the variety of shapes and heights of glue and solder paste deposits which may be needed due to the diversity of components that are often used. For example, a 0603 chip component may require a glue deposit 13 mils wide by 33 mils long by 8 mils high. At the same time, a plastic leaded chip carrier (PLCC) may require a glue deposit 60 mils wide by

120 mils long by 30 mils high. In addition, current stencil printing techniques are generally ill-suited to handle preexisting components that may be as much as 50 mils high.

There is a further requirement where it is desirable to print glue on a PCB that already has clinched connector leads protruding through the PCB. In this case, the required vertical clearance for preexisting board components alongside the adhesive deposition sites poses the manufacturing dilemma of producing controllable-volume, micro-fine apertures in a substrate thick enough to clear the preexisting components.

It is also necessary in the SMT industry to deliver solder balls in a ball grid array (BGA) to a substrate, such as a BGA package or a silicon wafer with active circuits. The substrate has pads that need to have flux placed on their surface. BGA balls are placed into the flux on the pads through the use of a stencil. The tacky flux holds the balls onto the substrate. During the solder reflow process, the solder balls melt and become permanently attached to the substrate. It is desirable to bring the ball drop stencil in contact with the substrate and drop the balls into the flux deposits over the pads on the substrate. However, it is also desirable to keep the flux away from the bottom side of the stencil. Current techniques include a structure with a chemical etch relief on the bottom side of the stencil and a small hole etched all the way through the stencil. This is a very difficult process to control. There is therefore a need in the SMT industry to provide a cost-effective, flexible and easily-controllable means for applying viscous materials, such as adhesives, conductive glue, solder paste, and solder balls, onto PCBs, flexible circuits, wafers and other substrates.

Summary of the Process. The process describes an apparatus and method for depositing adhesives, conductive glues, solder paste, solder balls and other viscous surface mount materials onto printed circuit boards (PCBs), flexible circuits, wafers and other substrates. The process can accommodate preexisting surface mount components and materials. The process comprises a stencil with two or more layers and utilizes material reservoirs, relief areas and delivery apertures.

A stencil for applying surface mount materials is disclosed which comprises at least two layers. The layers comprise at least one reservoir pocket and at least one delivery aperture and may further comprise at least one relief area. The delivery aperture delivers surface mount materials from the reservoir pocket to a surface. The relief area provides clearance for preexisting components on the surface so as to allow the delivery aperture to contact the surface. The reservoir pockets, relief areas and delivery apertures can be combined within any number of layers. In a preferred embodiment, the number of layers used is two or three, and the layers are made of metal and manufactured by the processes of chemical etch, laser cut, or electroforming. The layers can be aligned through the use of registration pins and etched registration holes and attached to one another by means of an aqueous dry-mount solder mask laminate. The stencil comprises an upper reservoir layer with reservoir pockets; a middle separation layer with relief areas and reservoir through pockets; and a lower contacting layer with delivery apertures and relief openings. The delivery apertures deliver measured surface mount materials from the reservoir pockets to the surface by way of the reservoir through pockets in the middle separation layer which connect to the reservoir pockets in the upper reservoir layer. The lower contacting layer has relief openings which are connected to the relief areas in the middle separation layer. The stencil for applying solder balls in a desired pattern onto a substrate comprises an upper layer with at least one ball drop reservoir aperture; and a lower contacting layer with at least one relief delivery aperture to provide clearance for flux on pad sites on the substrate.

The method for depositing surface mount materials onto a surface is described which comprises the steps of: matching relief areas in the stencil with preexisting surface mount components on a surface; affixing the stencil to the surface; applying surface mount materials to the stencil such that the surface mount materials fill reservoir pockets in the stencil; and depositing surface mount materials onto the surface through delivery apertures on the stencil, wherein the delivery apertures draw the surface mount material from the reservoir pockets.

**PREZIDENT MAKTABLARIDA TARIX DARSLARINI LOYIHALASH
METODI ASOSIDA TASHKIL ETISH**

Baxtiyor Raximov

Qarshi shahridagi Prezident maktabi

oliy toifali tarix fani o'qituvchisi

Tayanch iboralar: samaradorlik, loyiha metodi, mustaqil fikrlash, madaniy estetik tarbiya, taqdimot qilish, loyihasi pasporti, slayd, hikoya, portfolio, tarqatma materiallar tayyorlash, krossvord tuzish, loyiha taqdimoti.

Tarix darslarini loyiha metodi asosida tashkil qilish ta'lim berish samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida o'quvchilar ongida ma'lumotning 75% i saqlanib qoladi. O'quv-amaliy mashg'ulotlarning o'quvchilar tomonidan olib borilishi undan ham samaraliroq hisoblanadi, bunda 90% ma'lumot o'zlashtiriladi. Shu sababli o'quv jarayonini loyiha metodi asosida tashkil qilish o'quvchilarning mavzu yuzasidan oladigan bilim va ko'nikmalarni shakllantiradi.

6-sinf o'quvchilariga umumta'lim maktablari tarix darsliklaridagi mavzularni tahlil qilib, loyiha metodi asosida tayyorlash uchun mavzular tanlab olinadi. 6-sinf tarix darsligidan loyiha metodi asosida o'tiladigan mavzular sifatida quyidagilar tavsiya etiladi: 1. Urug'chilik jamiyati. 2. Qadimgi Misr dini. 3. Mesopotamiya sivilzatsiyasi. 4. Qadimgi Yunoniston ravnaqi. 5. Qadimgi Yunoniston madaniyati. 6. O'rta Osiyoda Ahamoniylar hukmronligi.

Masalan, umumta'lim maktablarining 6-sinf tarix fanidan "O'rta Osiyoda Ahamoniylar hukmronligi" mavzusidagi loyiha metodi asosida o'tiladigan dars mashg'uloti tanlab olinadi.

O'quv loyihasi: "O'rta Osiyoda Ahamoniylar hukmronligi"

6-sinf o'quvchilarining yoshi, qobiliyati va psixologik holatiga mos ravishda o'quv loyihalari tanlanishi kerak. O'quvchilarda tasavvur va tushunchalar mavjud bo'lmaydi, shu sababli tarix o'qituvchisi o'quvchilarda ilk tarixiy tushunchalarni

shakllantirishni maqsad qilib qo'yadi. Tarix fanini o'qitishda insoniyat tarixining ibtidoiy tarixidan to milodiy 476-yil ya'ni G'arbiy Rim imperiyasi qulagangacha bo'lgan muhim tarixiy voqealarini loyiha metodi asosida o'rganish ko'zda tutiladi. 6-sinf o'quvchilarga tavsiya etiladigan manba va adabiyotlar o'quvchining yoshiga mos, sodda va tushunarli bo'lishi kerak. O'quvchilar loyihani bajarish jarayonida yuqori sinf o'quvchilari va ota-onalar yordamiga suyanadi. Bu ular o'rtasidagi muloqotni yaxshilashga yordam beradi.

Loyiha doirasida yechilishi kerak bo'lgan muammo: Miloddan avvalgi VI – IV asrlarda vatanimiz tarixi to'g'risida, xalq ozodligi uchun kurashgan xalq qahramonlari jasorati to'g'risida tasavvur, tushuncha va bilim hosil qilish.

Loyihaning maqsadi: Vatanimizning qadimgi tarixi to'g'risida o'quvchilarda bilim hosil qilish.

Vazifalar:

1. Mavzuga doir adabiyot va manbalarni to'plash.
2. Matn va axborot manbalari bilan ishlash.
3. Mavzuga doir slayd tayyorlash, hikoya tuzish, taqdimot

Loyihani amalga oshirishdan erishiladigan natija o'quvchilar To'maris, Shiroq va Spitamenning jasoratlarini mavzusini o'rganish jarayonida mavzuga doir manba va adabiyotlarni to'plash, ularni tahlil qilish, darslik matni va axborot manbalari bilan ishlash, tarqatma materiallar tayyorlash, krossvord tuzish, loyiha taqdimotini tayyorlash ko'nikmalariga ega bo'lish.

Loyihadan foydalanuvchilar: Prezident va umumta'lim maktablari tarix fani o'qituvchilari.

Loyihaning obyekti: Prezident maktabi 6-sinf o'quvchilari.

6-sinf tarix darslarida "O'rta Osiyoda Ahamoniylar hukmronligi" mavzusini o'quvchilarga o'tish jarayonida loyiha metodini qo'llash, natijalarni taqdim qilish uchun quyidagi shakldan foydalanish ko'zda tutiladi.

Taqdimot tayyorlash jarayoni quyidagilardan iborat:

- taqdimot turini tanlash;

- taqdimotni umumiy rasmiylashtirishni tanlash;
- slaydlarning mazmunli tomonlarini tanlash;
- yangi slaydlarni qo‘shish;
- slaydlarni belgilashni tanlash;
- zarur bo‘lganda slaydlarni rasmiylashtirishni o‘zgartirish;
- slaydlarni namoyish etish vaqtida turli ovozli animatsiyalarni yaratish.

Slaydlarni texnik namoyish etish quyidagi tavsiflarga javob berishi kerak:

Slaydlar miqdori 8 – 12 tani tashkil etsa maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Slaydlarning mazmunli ko‘rsatkichlari:

- birinchi slayd: loyiha nomi, muallif familiyasi, o‘quv guruhi dan iborat;
- oxirgi slayd axborot manbasiga bag‘ishlangan;
- boshqa slaydlar loyiha mazmunini ixtiyoriy shaklda aks ettiradi.
- Slaydlar o‘z-o‘zidan ishlash tartibida namoyish ettiriladi.



Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash lozimki, Prezident maktablarida 6-sinf tarix darslarini loyihalash metodi asosida tashkil etish orqali o‘quvchilarni vatanparvarlik va yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash yanada samarali bo‘ladi. O‘quvchilarni boy tarixiy-ma’naviy ozuqa olishiga ko‘mak beradi.

YOSHLAR SLENGI LINGVISTIK TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA

Xurshida Xaydarova*Qarshi shahridagi Prezident maktabi**oliy toifali ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Annotatsiya. Sleng norasmiy holatdagi kundalik suhbat hamda yozishmalarda foydalaniladigan soʻzlar, shuningdek iboralarni oʻz ichiga oladi. Ushbu atama “sub” hamda “language” soʻzlarining qisqartmasi boʻlib, ijtimoiy guruhlarda qoʻllaniluvchi oʻziga xos soʻzlardir. Sleng, asosan, ogʻzaki nutqda yaratiladi hamda soʻzlashuvda keng tarqaladi. Shuningdek, hozirgi kunda slenglarni tarqatishning boshqa manbalari – internet, ijtimoiy tarmoqlar, reklamalar, qoʻshiqlar mavjud. Yozuvchilar tomonidan qoʻllanganda, sleng maʼlum bir taʼsirga erishish uchun tanlanadi. Yozuvchilar kamdan kam hollarda sleng yaratishadi. Sleng eng qiziqarli hayot sohalarini tasvirlaydi. Yoshlar slengini kattalarni chetlashtirish uchun moʻljallangan kodlangan til deb hisoblash ham mumkin. Hozirgi kunda deyarli har bir yosh kompyuter hamda internet tarmogʻida faoldir. Internet, kompyuterlar, hamda kompyuter oʻyinlari keng tarqalgan boʻlib, hayotning ushbu sohasi bilan bogʻliq soʻzlari yoshlar orasida juda mashhur boʻlib kelmoqda. Yoshlar hamda ularning qiziqishlari haqidagi materiallarni oʻz ichiga olgan barcha jurnallar, teledasturlar ham koʻplab slenglarni oʻz ichiga olmoqda.

Kalit soʻzlar: ijtimoiy guruh, yoshlar slengi, adabiy til, sema, til xususiyatlari, tilshunoslik, sotsiolingvistika.

Sleng tilni tetiklashtirish, yanada chiroyli qilish, hayratlanarli soʻzlar zaxirasini koʻpaytirish yoki yangi maʼno qirralarini kashf etish, soʻz boyligini taʼminlash uchun zukko shaxslar tomonidan yaratiladi. Slengni yaratuvchilarning aksariyati, ehtimol, ushbu maqsadlarni anglamaydilar hamda ular tillarda sodir boʻladigan voqealar haqida ortiqcha tashvishlanmaydilar.

Yoshlarning nutqida slenglardan foydalanishning quyidagi sabablari mavjud:

1. Nutqni shifrlashga urinish (bexabar insonlar uchun tushunarsiz qilish).
2. Shaxsiy tuyg'ularini ifoda etish istagi.
3. Kompaniyada o'zini tanitib olish, "to'dalardan biri" ekanligini ko'rsatish.
4. "Yetuklik"ni ko'rsatish, hayratlanarli bo'lish.

So'zlar ro'yxatidan slenglarning aksariyati yoshlar o'rtasidagi munosabatlarni ifoda etishini ko'rishimiz mumkin. Ba'zilar yoshlarning kundalik voqealarga munosabatini ko'rsatish uchun foydalaniladi. Ba'zilar esa insonlarning his-tuyg'ularini ko'rsatish uchun ham qo'llaniladi. Ko'plab slenglar yoshlarni kompyuterlar dunyosi bilan bog'laydi. Shuningdek, slenglar ichida kimnidir chaqiradigan so'zlar ham mavjuddir. Bir tomondan sleng so'zlarning yaratilishi o'zbek tilining so'z boyligini sezilarli darajada kengaytiradi, biroq boshqa tomondan uning go'zalligi hamda o'ziga xosligi yo'qolishiga olib keladi. Umuman olganda, slenglar so'zlashuvdan yo'q bo'lib ketmaydi. Yoshlar ko'p yillar oldin ham slenglardan foydalanganlar, shuningdek, ularni qo'llashda davom etadilar. Slenglar vaqt o'tishi bilan o'zgaradi, ba'zilar yo'q bo'ladi, boshqalari esa yangitdan paydo bo'ladi.

Sleng tilga bezak bermaydi, aksincha, nutqni kambag'al qiladi. Tadqiqot davomida aniqlangan o'zbek tilidagi sleng so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarining ko'p hollarda salbiy xarakterga egaligi anglashildi. Bugungi kunda sleng zamonaviy tilshunoslikning hamda leksikologiyaning eng muhokamali tizimlaridan biridir. Sleng undan foydalanadigan jamiyatning til hamda madaniy xususiyatlarini aks ettiradi.

Ushbu maqolada sleng bilan bog'liq muammolar, zamonaviy yoshlarning so'zlashuv tilida undan foydalanish vaziyatlari muhokama qilingan. O'rta maktab yoshidagi o'quvchilar o'rtasida slenglar boshqa yosh guruhlariga nisbatan tez-tez uchraydi. Slengni qizlardan ko'ra o'g'il bolalar qo'llaydilar degan keng tarqalgan tushuncha mavjud. Biroq tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ham yigit, ham qizlar ijtimoiy guruhlariga qo'shilishlarini ko'rsatuvchi belgi sifatida slengdan foydalanadilar. Ta'kidlash mumkinki, o'zbek yoshlari boshqa turli xil tillarda so'zlashuvchilarning aksariyati singari o'zlarini identifikatsiya qilishni istagan ijtimoiy guruhga

qo‘shilishlarini ko‘rsatadigan belgi sifatida slengdan foydalanadilar. Bu – guruhdan tashqaridagi vaziyatlarda qabul qilinmaydigan hamda keng aholi uchun noqulay bo‘lgan foydalanish uslubidir.

Hozirgi kunda yoshlarning nutqida qo‘llanayotgan eng faol slenglardan namunalari:

- **Shok video:** ta’siri kuchli, hayratlarga to‘la video;
- **Comment:** o‘z shaxsiy fikrini bildirish;
- **Parot:** biror ish o‘xshamaganda qo‘llaniluvchi so‘z;
- **Udari:** haddan ortiq ma’qul bo‘lganda qo‘llaniluvchi so‘z;
- **Bloktan chiqarish:** virtual olamdagi biror kishi bilan bo‘lgan aloqani tiklash;
- **Vkuslaring bormi:** tanlov qobiliyatiga nisbatan qo‘llaniluvchi so‘z;
- **Atmetka qilish:** virtual olamdagi belgilashni bildiruvchi so‘z;
- **Like bosish:** o‘ziga ma’qul kelganligini bildirishda qo‘llaniluvchi so‘z;
- **Shaytonlamay gapir:** shoshmasdan, aralashtirmasdan gapirishga nisbatan;
- **Podpiska bosish:** virtual olamdagi biror guruhga yoki tarmoqqa a’zo bo‘lish;
- **Commentariya yozish:** ijtimoiy tarmoqlarda o‘z shaxsiy fikrini qoldirish;
- **Trendga chiqdi:** modaning kuchayishida qo‘llaniluvchi so‘z;
- **Commentariya:** shaxsiy fikrlar;
- **Portlab ketish:** o‘zini boshqara olmay qolganda qo‘llaniluvchi so‘z;
- **Piar qilish:** mashhur kishilarning o‘z-o‘zlarini soxta shov-shuvli xabar bilan reklama qilishlari.

Slenglarning o‘ziga xos turlaridan biri bu o‘spirin slengi, o‘spirinlar tomonidan ishlatiladigan til uslubi yoki boshqacha aytganda, tilning avlodga xos foydalanilishidir. Ushbu turdagi slenglarning muhim vazifasi umumiy kattalar dunyosidan ajralib turadigan o‘ziga xoslikni yaratishdir. O‘spirinlar, odatda, o‘zlarining yosh guruhiga mansubligini hamda boshqa yosh guruhlaridan ajralib turishini ko‘rsatadigan til uslubidan foydalangan holda o‘zlarini bolalar va kattalardan ajratib turadilar (o‘spirinlar o‘zlarini begona deb da’vo qiladigan boshqa avlodlar bilan o‘zaro munosabatlarda bunday iboralarni qo‘llamaydilar hamda

ulardan foydalanishni ma'qullamaydilar). O'spirinlar slengi tez o'zgarib turadi, chunki insonlar cheklangan vaqt ichida o'spirin bo'lib, kattalar o'zlarini chetga olishadi hamda guruh so'zlarini vaqt o'tishi bilan sodir bo'layotgan o'zgarishlarni eski iboralar hamda ma'nolarga qarab asta-sekin unutishadi.

Boshlang'ich maktab yoshidagi o'quvchilar (o'rtacha 7 – 12 yosh) yoshlar tomonidan qo'llanadigan barcha sleng iboralarini yaxshi bilishmaydi hamda aksariyat slenglarning ma'nosini anglamaydilar. Ular slengni noo'rin til deb bilishadi hamda bunday so'zlarni qo'llaydigan insonlarni odobsiz deb hisoblashadi. Slengdan foydalanish ko'proq o'rta maktab yoshidagi o'quvchilar orasida kuzatiladi.

Til ba'zida davr talabi bilan moda yoki musiqa uslubi kabi tez o'zgarib turadi hamda xuddi moda singari u ham o'ziga xos shaxsni belgilash uchun qo'llanilishi mumkin. O'spirinlik hayotning bir davrini belgilab berganligi sababli, o'zlikni tasdiqlashga intilish kuchli bo'ladi. Kattalar yoshlar singari tilni rivojlantira olmaydilar. Yoshlar davr uchun eng samarali aloqa shakllarini belgilaydilar. Tilning bir shaklidan uzoq vaqt davomida foydalanib bo'lmaydi. Yoshlarni tilni tabiiy ravishda rivojlanishiga imkon beradigan novatorlar deb hisoblash mumkin. Ba'zi hollarda savodxonlar ham nasriy asarlarda imzo so'zlari yoki iboralarni qo'yish orqali tilni rivojlantiradilar. Ularning yangi so'zlar haqidagi yozuvlari so'zlarni lug'atlarga kiritadi.

Hozirda sleng yoshlarning asosiy tiliga aylanmoqda. Ba'zi yoshlar slenglardan asosiy til sifatida foydalanadilar hamda kerak bo'lganda jamiyatning qolgan qismi bilan to'g'ri aloqa qilishni unutadilar. Bu holat esa yoshlarning rasmiy doiralarda mehnat faoliyatlarini olib borishlarida hamda mansab-unvonlarining yuqori pog'onaga ko'tarilishida to'sqinlik qilishi mumkin. Yoshlar slengdan qachon va qay tarzda foydalanishlari kerakligini farqlashlari lozim.

O'QITUVCHILAR FAOLIYATIDAN...

O'QUVCHILAR MEHRINI QOZONGAN SCIENCE FANI USTOZLARI

Edwin Leal Suriga – Qarshi shahridagi Prezident maktabi Science fani o'qituvchisi, falsafa doktori (PhD).

Edwin Suriga 1981-yil 27-noyabrda Filippinning janubidagi Kotabato shahrida tavallud topgan. 2003-yilda Marbel universitetining kimyo ixtisosligini, 2014-yilda Mindanao davlat universitetini Scienceni o'qitish magistraturasini tamomlagan. 2014-yilda Ta'lim menejmenti ixtisosligi bo'yicha falsafa doktori ilmiy darajasini olgan.



2021-yildan boshlab Qarshi shahridagi Prezident maktabida faoliyat olib bormoqda.

Sharopov Ulug'bek Sharipovich – Qarshi shahridagi Prezident maktabi science fani o'qituvchisi. Edwin Leal Suriga bilan hamkorlikda dars beradigan mahalliy ustoz.

Sharopov Ulug'bek 1991-yil 26-sentabrda Qarshi shahrida tavallud topgan. 2014- yilda O'zbekiston milliy universitetini tamomlagan. 2015-yilda Janubiy Koreya milliy Transport universitetida kimyo fani bo'yicha ilmiy faoliyatini grand

asosida davom ettirgan. 2019-yil Janubiy Koreyaning Dong-A Universitetida ingliz tili filologiyasida magistraturani tamomlagan. 2020 – 2021-yillarda Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash instituti Qarshi filialida faoliyat olib borgan.



Janubiy Koreyada “Xalqaro kimyogarlar” konferensiyasida ishtirok etgan. Ulug‘bek Sharopov uchta tilda bimalol gaplasha oladi. U koreys, ingliz tillaridan xalqaro sertifikatlarga ega.

Michele Gaddy, Bekzod Mamatqulov
Qarshi shahridagi Prezident maktabi jamoasi nomidan

TADQIQOTCHI PEDAGOG

Ruslan Allayorov – Qarshi shahridagi Prezident maktabining oliy toifali geografiya fani o‘qituvchisi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi (2020).



Ruslan Allayorov 1992-yil 7-iyulda Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanida tug‘ilgan. 2015-yilda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti Geografiya o‘qitish metodikasi yo‘nalishini, 2018-yilda ushbu oliygo‘hning Aniq va tabiiy fanlarni o‘qitish metodikasi (geografiya) mutaxassisligi magistraturasini tamomlagan. 2015 – 2016, 2018 – 2021-yillarda Qashqadaryo viloyati G‘uzor tumanidagi 68-sonli davlat ixtisoslashtirilgan maktab internatida o‘qituvchi sifatida faoliyat ko‘rsatgan. 2021-yildan Qarshi shahridagi Prezident maktabi o‘qituvchisi. R.Allayorov pedagogik faoliyat bilan birgalikda bir necha yildan buyon ilmiy-tadqiqot faoliyati bilan ham shug‘ullanib kelmoqda. U fanning tabiiy geografiya, landshaftshunoslik, geokologiya, geografiya o‘qitish metodikasi, turizm va rekreatsiya geografiyasiga oid 1 ta monografiya, 1 ta risola, 6 ta o‘quv-uslubiy qo‘llanma va 60 ga yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy maqolalar muallifi. Tabiiy geografik ta‘limotlarning geografiya ta‘limidagi o‘rni va Janubi-g‘arbiy Hisor tog‘lari geokologiyasiga bag‘ishlangan maqolalari Respublika hamda xorijiy mamlakatlarning ilmiy jurnallari va ilmiy-amaliy konferensiyalari to‘plamlarida chop etilgan.

Ruslan Allayorov o‘zining yetakchilik qobiliyati va ijtimoiy faolligi bilan ajralib turadi. U 2014 – 2017-yillar davomida O‘zbekiston teleradio kompaniyasi “Dunyo bo‘ylab” telekanali orqali efirga uzatiladigan “Kamalakdek serjilo”, “Geomaskan” ko‘rsatuvlarida bir necha bor chiqishlari bilan ishtirok etgan. Ziyoforum ilm-fan va ta‘lim-tarbiyani rivojlantirish fondi tomonidan Ziyolilar – yosh tadqiqotchilar (60 talik) almanaxiga kiritilgan (2021).




Ruslan Allayorov o‘zining tadqiqot yo‘nalishidagi 40 ga yaqin ilmiy, ilmiy-uslubiy ishlarini Respublika va Rossiya, AQSh, Qozog‘iston, Ispaniya kabi mamlakatlarning nufuzli jurnallarida ilmiy jurnallari va xalqaro miqyosdagi ilmiy-amaliy konferensiyalarda chop ettirib, diplom, sertifikat va faxriy yorliqlar bilan taqdirlangan. U O‘zbekiston, Qozog‘iston geografiya jamiyatlari a‘zosi hisoblanadi.

Ruslan Allayorov hozirgi kunda Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, geografiya fanlari nomzodi N.Alimkulov ilmiy rahbarligida “Janubi-g‘arbiy Hisor tog‘ va tog‘oldi landshaftlaridan foydalanish va geoekologik vaziyatini optimallashtirish” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi ustida ilmiy tadqiqot ishini olib bormoqda.


Sardor Sodiqov, Xusnora Nurmatova
Qarshi shahridagi Prezident maktabi jamoasi nomidan

VIKTORINALAR


1-jumboq: Ushbu shaklda nechta uchburchak mavjud?



2-jumboq: Sizda 6 ta tuxum bor edi. 2 tasini sindirdingiz, 2 tasini pishirdingiz, 2 tasini yedingiz. Sizda nechta tuxum qoldi?



3-jumboq: So‘roq belgisi o‘rnidagi sonni toping?



Eslatma! “OLTIN FOND” adabiy-ma’rifiy, metodik jurnaliga kiritilgan maqolalar va ma’lumotlar haqqoniyligiga va keltirilgan iqtiboslar to‘g‘riligiga mualliflar shaxsan javobgardirlar.

“OLTIN FOND” adabiy-ma’rifiy, metodik jurnalida chop etilgan maqolalardan foydalanilganda manba ko‘rsatib o‘tilishi shart.

PREZIDENT TA'LIM MUASSASALARI AGENTLIGI

QARSHI SHAHRIDAGI PREZIDENT MAKTABI

OLTIN FOND

adabiy-ma'rifiy, metodik jurnal

№ 1

Mas'ul kotiblar – Xusnora Nurmatova, Dildora Burxonova

Muharrir – Ruslan Muhammadiyev

Sahifalovchi – Ruslan Allayorov

“OLTIN FOND” adabiy-ma'rifiy, metodik jurnali tahririyatining manzili:

Qarshi shahar, Mustaqillik shoh ko'chasi 1-uy.

<https://t.me/pm qarshi>

@Oltinfondjurnali

OLTIN FOND adabiy-ma'rifiy, metodik jurnali. – Qarshi shahri: 2021. – 46 b.

© Mualliflar jamoasi, 2021

